G.Ya. Muxibova, O.U. Sharifxodjayeva, O. To'rabekova	
ДЕТЕРМИНАНТЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ МЕЖРЕГИОНАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ РАБОЧЕЙ СИЛЫ В УЗБЕКИСТАНЕ	1009
Шакаров Зафар Гаффарович	
TURIZM KLASTERLARIDA TIBBIY XIZMATLAR INTEGRATSIYASI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1018
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi, Farxodova Shohnova Umidbek qizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRUVCHI ZAMONAVIY YONDASHUVNI ISHLAB CHIQISH	1027
Xojiyeva Nazokat Davronbekovna	
QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARINING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON MISOLIDA	1034
Shodiyeva Zarinnabonu Shodi qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1039
Qurbaniyozov Shaxzodbek Karimovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1044
Qurbanbayev Jurabek Eruvboyevich	
FINTECH TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING KORXONA LIKVIDLIGIGA TA'SIRI	1048
Karimov Xondamir Jamshid o'g'li	
IMPROVING STRATEGIC MANAGEMENT ACCOUNTING OF INCOME AND EXPENSES	1056
Pardaeva Shakhnoza Abdinabievna	
DIGITAL SKILLS AND ACCOUNTING EDUCATION: NEEDS AND GAPS IN UZBEK HIGHER EDUCATION – CURRICULUM IMPLICATIONS FOR THE DIGITAL AGE	1061
Rustamova Iroda Bahtiyorovna	
TIJORAT BANKLARINING KREDIT XIZMATLARI: ZAMONAVIY TAHLIL VA TARAQQIYOT TENDENSIYALARI	1066
Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING YUQORI SIFATLI RIVOJLANISHINI TA'MINLASH	1073
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOTNING BARQAROR RIVOJLANISH	1079
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
MAHSULOT, ISH (XIZMAT)LAR TANNARXIGA KIRITILADIGAN MODDIY XARAJATLAR VA ULARNI HUIJATLASHTIRISH	1084
Bolibekov Baxtiyor Achilovich, Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich	
AYOLLARNING YETAKCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA TO'SIQLARI	1088
Baymuratova Guldjahan Xamdamovna	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH AMALIY TAHLILI JARAYONLARI	1093
Boboqulov Akmal Muborakbekovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOB, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT TIZIMLARINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'NALISHLARI	1099
To'laganov Ziyovuddin Kamolitdin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING IQTISODIY O'SISHDAGI AHMIYATI	1105
Nematullo Zuvaydullaev	



GLOBAL OZIQ-OVQAT TIZIMIDA AQSH IMPORT-EKSPORT SIYOSATI VA UNING MILLIY OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI	1109
Matjonov Bekjon Ravshonbekovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI	1115
Axatova Shahnoza	
ЭКОТУРИСТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ И РЕСУРСЫ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ.....	1119
Каримова Фотима Абдурасуловна	
RAQAMLI IQTISODIYOT: O'ZBEKISTONDA ELEKTRON SAVDO VA TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI.....	1124
Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA IPOTEKA KREDITLARINI RIVOJLANTIRISHDA ILG'OR XORIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1128
Tohirov Muhammad Bobur Tohir o'g'li	
KATTA HAJMLI MA'LUMOTLARDAN OVOZLI XABARLARNI AJRATIB OLISHDA PARALLEL HISOBLASH ALGORITMLARI VA UNING DASTURIY MAJMUASINI ISHLAB CHIQUISH	1135
Jummayeva Yulduz Achilovna	
MAMLAKATDA NODAVLAT VA NOTIJORAT TASHKIOTLARNI MOLIYAVIY TA'MINLASH MEKANIZMLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1141
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
TURISTIK KORXONALARDA BREND KAPITALI TUSHUNCHASI VA UNING TARKIBIY ELEMENTLARI.....	1146
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
IPOTEKA KREDITLARINI MOLIYALASHTIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	1155
Rasulov Doniyor Dilmurod o'g'li	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH FUNKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	1161
Sulaymonov Farrux Shuxratovich	
QORAQALPOG'ISTON AGRAR TARMOG'IDA TRANSFORMATSION O'ZGARISHLARNING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	1166
Mambetnazarov Baxit Bisenbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINI STRATEGIK BOSHQARISHNING DOLZARBLIGI	1171
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA SHAHARSOZLIK JARAYONLARINING EKOLOGIK OQIBATLARI	1175
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Olimov Anvarjon Atamirzayevich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA UNDA XORIJIY INVESTITSIALARNING ROLI.....	1182
Nazarova A.N.	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIYAVIY BOSHQARISHNING AYRIM JIHATLARI.....	1187
Mamatov O'tkir Botir o'g'li	
JANUBI-G'ARBIY O'ZBEKISTONDA CHORVACHILIK TARMOQLARINI PROGNOZ QILISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)	1191
Xudoyberdiyeva Iroda Abduxomidovna	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISHDA G'AZNACHILIK TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING MOLIYAVIY SAMARADORLIGI.....	1199
Tangrieva Farida Abdulkarimovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARINING IQTISODIY BARQARORLIGIDA INNOVATSION FAOLIYATNING AHAMIYATI	1204
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
YASHIL MARKETING YONDASHUVI ORQALI KORXONALARDA RESURS SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1211
Sapayev Axmed Durdibayevich	



АНАЛИЗ И ОПТИМИЗАЦИЯ СЕБЕСТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ И РАСХОДОВ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ	1216
Ташмухамедова Карима Саматовна, Якубова Сабина Алишеровна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA FERMER XO'JALIKLARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH	1222
B.B.Seilbekov	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOT VA EKOLOGIK BARQARORLIK SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	1226
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	
ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF FOREIGN TRADE ACTIVITY IN UZBEKISTAN'S REGIONS AND FORECASTING REGIONAL FOREIGN TRADE UNDER WTO AND EAEU ACCESSION (BASED ON THE CASE OF KAZAKHSTAN).....	1230
Sitara Tojiqulova Sobirjon qizi	
BANKLARNING KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA NAZORAT QILISHNING – COST OF RISK (COR) KO'RSATKICHI TAHLILI	1240
Maxmudov Omon Tuxtayevich	
1-WIRE PROTOKOLI ASOSIDA BIOSIGNALLARNI UZATISH JARAYONI VA MA'LUMOTLAR STRUKTURASINI LOYIHALASH	1245
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA VA UNING XUSUSIYATLARI	1250
Ibrohimov Davronbek Muhammadi o'g'li	
ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ.....	1257
Хамидходжаева Назира Махкамовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI AYLANMA MABLAG'LARINI BOSHQARISH METODOLOGIYASI.....	1260
Taspanova Ayzada Kenjebayevna	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT SANOATI VA UNING RIVOJLANISH HOLATI	1264
Xusanova Gavhar	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LTE VA NR TARMOQLARINING BIRGALIKDA ISHLASHINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI.....	1270
Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich	
THE OPPORTUNITIES OF PERSONALIZING TOURISM SERVICES THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE	1276
Olimov Davron Olimovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ РАДИОЖУРНАЛИСТИКИ В ЭПОХУ ЦИФРОВОГО ЭФИРА: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА И ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ	1281
Мамадалиева Шахноза Абдумаликовна	
EFFECTIVE MANAGEMENT OF ADMINISTRATIVE PERSONNEL IN UZBEKISTAN'S PUBLIC UNIVERSITIES.....	1289
Inoyatov Orzubek Saidvaliyevich	
ZAMONAVIY MENEJMENTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	1297
Igamberdiyeva Nasiba Babadjanovna	
DAVLAT QIMMATLI QOG'OZLARI MILLIY MOLIYA BOZORINI BARQARORLASHTIRISH OMILI SIFATIDA.....	1304
Rabiyev Akram Homitovich	
AKTSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INNOVATSION JARAYONLARNI KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMI ASOSIDA TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI	1311
Xujaxonov Nuriddin Nasrullayevich	
ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА	1318
Худайберганава Зарофат Захидовна	
К ВОПРОСУ О РАССМОТРЕНИИ РИСКОВ ЛЕГАЛИЗАЦИИ НЕЗАКОННЫХ ДОХОДОВ В УЧЕБНЫХ МАТЕРИАЛАХ ПРОФИЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ ПО БАНКОВСКОМУ АУДИТУ	1324
Мухамедова Севара Абдуллаевна	



AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI YURITISHDA TA'MINOT JARAYONINING AHAMIYATI.....	1437
Nuraliyeva B.	
TEMIR YO'L TRANSPORTI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	1443
Raximov Xasan Shukurjonovich	
XALQARO TASHQI ISHLARDA KATTA MA'LUMOTLAR TAHLILI VA MA'LUMOT DIPLOMATIYASI: AXBOROTNI STRATEGIK RAZVEDKAGA AYLANTIRISH	1450
Kurolov Maksud Obitovich	
TA'LIM BOSHQARUVIDA "YASHIL KO'NIKMALAR"NI INTEGRATSIYALASH VA BARQAROR RIVOJLANISH: TALABALAR VA TIZIMLARNI IQLIM HARAKATIGA VA YASHIL IQTISODGA O'TISHGA TAYYORLASH.....	1460
Esanova Shohida	
НАЛОГОВАЯ КУЛЬТУРА: СУЩНОСТЬ, ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ	1468
Хамзина Динара Рашатовна	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT KORXONALARINING INNOVATION FAOLIYATINI TANLANMA KUZATUV ASOSIDA O'RGANISH METODOLOGIYASI.....	1473
Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA "YASHIL MENEJMENT" TIZIMINI JORIY ETISH	1482
Masharipova Sevara Bekturdi qizi	



QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA “YASHIL MENEJMENT” TIZIMINI JORIY ETISH

Masharipova Sevara Bekturdi qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi

E-mail: masharipovasevara50@gmail.com

ORCID: 0009-0008-9405-9738

Annotatsiya. Ushbu maqolada qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda “yashil menejment” tizimini joriy etishning ahamiyati, tamoyillari va amaliy mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ekologik barqarorlik, resurslardan oqilona foydalanish va chiqindilarni kamaytirish orqali ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiya qilish yo'llari o'rganilgan. Maqolada O'zbekiston sharoitida yashil texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari hamda davlat siyosati va xalqaro tajribalar o'zaro solishtiriladi.

Kalit so'zlar: yashil menejment, ekologik innovatsiyalar, qurilish materiallari, barqaror rivojlanish, chiqindilarni boshqarish, energiya samaradorligi.

Abstract. This article examines the significance, principles, and practical mechanisms of implementing a “green management” system in construction materials enterprises. The study explores ways to modernize production processes through ecological sustainability, rational use of resources, and waste reduction. The article compares the opportunities for applying green technologies in Uzbekistan's context with state policies and international practices.

Key words: green management, ecological innovations, construction materials, sustainable development, waste management, energy efficiency.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение, принципы и практические механизмы внедрения системы «зеленого менеджмента» на предприятиях по производству строительных материалов. В исследовании анализируются пути модернизации производственного процесса за счёт экологической устойчивости, рационального использования ресурсов и сокращения отходов. В статье сопоставлены возможности применения «зелёных» технологий в условиях Узбекистана, государственная политика и международный опыт.

Ключевые слова: зелёный менеджмент, экологические инновации, строительные материалы, устойчивое развитие, управление отходами, энергоэффективность.

KIRISH

So'nggi yillarda global miqyosda atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash hamda ishlab chiqarishning barqaror shakllarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Qurilish sanoati hozirgi kunda iqtisodiyotning eng muhim, shu bilan birga atrof-muhitga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi tarmoqlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu soha tabiiy resurslardan keng foydalanishi va ishlab chiqarish jarayonida ma'lum miqdorda chiqindilar hosil bo'lishi bilan ajralib turadi. Shu sababli, qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda “yashil menejment” tizimini joriy etish zamonaviy ishlab chiqarish siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda gi “2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining ‘yashil’ iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida” gi



Qarori doirasida ishlab chiqarish korxonalarida ekologik samaradorlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va chiqindilarni kamaytirish masalalari ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [1]. Mazkur hujjat asosida ekologik jihatdan xavfsiz, raqobatbardosh va energiya tejamkor ishlab chiqarish tizimlarini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarorida ushbu yo'nalishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan qator ustuvor vazifalar belgilab berilgan [2].

Ilmiy adabiyotlarda "yashil menejment" atamasi korxona faoliyatida ekologik xavfsizlikni ta'minlash, resurslardan tejamkor foydalanish va barqaror rivojlanish maqsadlarini uyg'unlashtiruvchi boshqaruv tizimi sifatida talqin etiladi (ISO 14001:2015) [3].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit dasturi (UNEP) ma'lumotlariga ko'ra, "yashil sanoat" yondashuvi ishlab chiqarishning ekologik ta'sirini kamaytirish, chiqindilarni qayta ishlash va energiya samaradorligini oshirish orqali iqtisodiy o'sish hamda ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi. Green Industry Initiative for Sustainable Development hisobotida esa sanoat tarmoqlarida ekologik boshqaruv mexanizmlarini joriy etish "yashil iqtisodiyot"ga o'tishning asosiy omillaridan biri sifatida qayd etilgan [4].

Yevropa Komissiyasining Circular Economy Action Plan [5] hujjatida "aylanma iqtisodiyot" tamoyillari — chiqindilarni resurs sifatida qayta ishlash, mahsulotning hayotiy siklini uzaytirish va ishlab chiqarish tizimlarini energiya tejamkor shaklga o'tkazish — "yashil menejment"ning ajralmas tarkibiy qismi sifatida e'tirof etiladi. Shuningdek, tahliliy hisobotlarda yashil o'sish siyosatining xalqaro tamoyillari belgilangan bo'lib, ularda ekologik samaradorlik, innovatsion texnologiyalar va davlat–xususiy sektor hamkorligi barqaror sanoat rivojlanishining poydevori sifatida ko'rsatib o'tilgan [6].

Klassik nazariy yondashuvlardan biri sifatida M. E. Porter va C. Van der Linde [7] o'z tadqiqotlarida ekologik me'yorlarni kuchaytirish korxona raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Ularning fikricha, "yashil innovatsiyalar" ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, resurslardan samarali foydalanishni rag'batlantirish va yangi bozor imkoniyatlarini yaratish orqali iqtisodiy rivojlanishni tezlashtiradi.

O'zbekiston misolida so'nggi yillarda "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019–2030-yillarga mo'ljallangan "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasi ushbu yo'nalishdagi huquqiy asosni shakllantirdi. Strategiyada sanoat korxonalarida ekologik menejment tizimini joriy etish, resurslardan oqilona foydalanish va chiqindilarni kamaytirish asosiy maqsad sifatida belgilangan.

Mahalliy tadqiqotchilar ham ushbu masalaga e'tibor qaratgan. Nazarov B. A. [8] o'z tadqiqotida O'zbekiston sanoat korxonalarida ekologik boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha amaliy mexanizmlarni tahlil qilgan. Muallifning ta'kidlashicha, ISO 14001 standartlariga asoslangan ekologik menejment tizimi korxonalarda energiya sarfini 15–20 foizgacha kamaytirish, chiqindilar hajmini esa sezilarli darajada qisqartirish imkonini beradi. Shuningdek, X. Jo'rayev [9] "Ekologik menejment va sanoatda barqaror rivojlanish masalalari" nomli maqolasida ekologik menejmentning nazariy asoslarini tahlil qilib, O'zbekiston sharoitida "yashil texnologiyalar"ni joriy etishning ijtimoiy-iqtisodiy afzalliklarini yoritgan.

Amaliy yo'nalishdagi tadqiqotlarda esa Khamidov A. R. va Tursunova M. Sh. [10] qurilish materiallari ishlab chiqarishda energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligini o'rganib, ushbu jarayon ishlab chiqarish tannaxsini o'rtacha 10–15 foizgacha kamaytirishini aniqlaganlar.

Xalqaro miqyosdagi tajribalar (Yevropa Ittifoqi, Yaponiya, Xitoy) shuni ko'rsatadiki, "yashil menejment" tizimini muvaffaqiyatli joriy etish uchun me'yoriy-huquqiy baza, iqtisodiy rag'batlar, texnologik modernizatsiya va kadrlar salohiyati bir-birini to'ldiruvchi omillar sifatida shakllanishi lozim. Ushbu tamoyillarni milliy sanoat siyosatiga integratsiya qilish O'zbekistonning barqaror rivojlanish strategiyasi bilan uyg'unlikda amalga oshirilmoqda.

Shunday qilib, tahlil qilingan ilmiy va amaliy manbalar "yashil menejment" tizimi nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirish, innovatsion raqobatbardoshlikni kuchaytirish va ijtimoiy mas'uliyatni yuksaltirishda ham muhim omil ekanini ko'rsatadi. Mazkur konsepsiyani qurilish materiallari sanoatida joriy etish esa barqaror sanoat rivojlanishiga, chiqindilarning kamayishiga va ekologik xavfsizlikning oshishiga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda "yashil menejment" tizimini joriy etishning nazariy va amaliy asoslarini o'rganish maqsadida bir qator ilmiy uslublardan foydalanildi.



1. Tahliliy usul — xalqaro tajriba (Yevropa Ittifoqi, Yaponiya, Xitoy) hamda O'zbekiston qurilish sanoati amaliyoti taqqoslab tahlil qilindi, natijada "yashil menejment" tizimini milliy sharoitda qo'llash imkoniyatlari aniqlab berildi.

2. Statistik tahlil — O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi hamda Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tarmoqdagi ishlab chiqarish hajmi, energiya sarfi va resurslardan foydalanish ko'rsatkichlari o'rganildi.

3. Sotsiologik so'rov — 15 ta mahalliy qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxona menejerlari va mutaxassislari o'rtasida "yashil menejment" tamoyillarini joriy etish bo'yicha fikr-mulohazalar va amaliy tajribalarni aniqlash maqsadida so'rovnoma o'tkazildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil menejment (Green Management) — bu korxona faoliyatida atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan zamonaviy boshqaruv tizimidir. Boshqacha aytganda, yashil menejment — bu ishlab chiqarish, marketing, logistika va boshqa biznes jarayonlarini ekologik xavfsiz tamoyillar asosida tashkil etishga qaratilgan boshqaruv yondashuvidir.

Yashil menejment tizimining asosiy maqsadi — atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan (energiya, suv, xomashyo) tejamkor foydalanish, ishlab chiqarish chiqindilarini kamaytirish yoki qayta ishlash, korxona faoliyatini barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiqlashtirish hamda mahsulot va xizmatlarni ekologik toza shaklda ishlab chiqishdan iboratdir.

Tizimning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Ekologik mas'uliyat — har bir menejer va xodimning atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli yondashuvi;
- Resurs tejamkorligi — energiya, suv va xomashyoni minimal sarf bilan maksimal natijaga yo'naltirish;
- Chiqindilarni boshqarish — ishlab chiqarish qoldiqlarini qayta ishlash va ularni ikkilamchi resurs sifatida qayta ishlatish;
- Yashil innovatsiyalar — ekologik xavfsiz texnologiyalar, energiya tejavchi qurilmalar va yangi, ekologik toza materiallardan foydalanish;
- Ekologik audit va monitoring — korxona faoliyatining ekologik ta'sirini doimiy nazorat qilish;
- Xodimlarni ekologik ta'lim bilan qurollantirish — "yashil fikrlash" madaniyatini shakllantirish.

Yashil menejment tizimi odatda ISO 14001:2015 xalqaro standarti asosida joriy etiladi. Mazkur standart ekologik menejment tizimini yaratish, nazorat qilish va doimiy takomillashtirish uchun asosiy xalqaro mezon hisoblanadi.

Jarayon bosqichlari quyidagicha:

1. Korxonaning ekologik ta'sirini aniqlash;
2. Maqsad va ko'rsatkichlarni belgilash (masalan, chiqindilarni 20 foizga kamaytirish);
3. Yashil siyosatni ishlab chiqish;
4. Xodimlarni o'qitish va malakasini oshirish;
5. Amaliyotga joriy etish va monitoring olib borish;
6. Natijalarni tahlil qilish hamda tizimni doimiy takomillashtirish.

Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar misolida, yashil menejment amaliyoti quyidagi yo'nalishlarda o'z ifodasini topadi:

- Beton ishlab chiqarishda — chang chiqindilarini kamaytirish uchun filtrlash tizimlarini o'rnatish;
- G'isht zavodlarida — tabiiy gazdan tejamkor foydalanish va chiqindi loyni qayta ishlatish;
- Sement ishlab chiqarishda — CO₂ chiqindilarini kamaytiruvchi texnologiyalarni joriy etish;
- Yoritish va isitish tizimlarida — quyosh panellari va LED yoritgichlardan foydalanish.

Yashil menejment tizimini joriy etish natijasida energiyaga bo'lgan xarajatlar kamayadi, mahsulot raqobatbardoshligi oshadi, korxona "yashil sertifikat" olish imkoniyatiga ega bo'ladi, ekologik imidji yaxshilanadi hamda barqaror rivojlanish maqsadlariga hissa qo'shiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston qurilish materiallari tarmog'ida korxonalarning qariyb 65 foizi energiya samarador texnologiyalarga to'liq o'tmagan, chiqindilarning qayta ishlash darajasi esa 22 foizni tashkil etadi. Shu bilan birga, "yashil menejment" tizimini keng joriy etish orqali quyidagi muayyan natijalarga erishish mumkin:

- Energiyani tejash: zamonaviy issiqlik izolyatsiyasi texnologiyalari, quyosh energiyasidan foydalanish va energiya auditi tizimini joriy etish orqali energiya sarfini sezilarli darajada kamaytirish;
- Chiqindilarni boshqarish: ishlab chiqarish chiqindilarini qayta ishlash (masalan, beton qoldiqlarini to'ldiruvchi material sifatida ishlatish) orqali ekologik yuklamani kamaytirish;
- Resurslardan samarali foydalanish: suv, gaz va xomashyo resurslarini qayta aylanish tizimiga kiritish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish;



• Ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish: ekologik audit o'tkazish, xodimlar uchun "yashil malaka oshirish" dasturlarini joriy etish orqali ekologik ongni mustahkamlash.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, yashil menejment tizimini amaliyotga tatbiq etgan korxonalarda ishlab chiqarish tannarxi o'rtacha 12–15 foizgacha kamaygan, eksport salohiyati esa 10 foizga oshgan. Bu natijalar yashil menejmentning nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ham samarali boshqaruv tizimi ekanligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda "yashil menejment" tizimini joriy etish nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv ishlab chiqarish jarayonlarida energiyadan samarali foydalanish, chiqindilar miqdorini kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, "yashil menejment" korxonalarning raqobatbardoshligini oshiradi, ularni xalqaro ekologik standartlarga (ISO 14001, ISO 50001) moslashtiradi hamda korporativ ijtimoiy mas'uliyatni mustahkamlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu tizimni amaliyotga joriy etish orqali korxonalar energiyani 15–20 foizgacha tejash, ishlab chiqarish chiqindilarini 25–30 foizgacha kamaytirish, shuningdek ekologik xavfsizlik darajasini sezilarli oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu natijalar O'zbekiston Respublikasining "Yashil iqtisodiyot" konsepsiyasida belgilangan strategik maqsadlar bilan bevosita uyg'unlikda amalga oshirilmoqda. "Yashil menejment" tizimining samarali joriy etilishini ta'minlash maqsadida me'yoriy-huquqiy bazani mustahkamlash, moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, texnologik modernizatsiyani jadallashtirish, kadrlar salohiyatini oshirish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish zarurdir. Bunda, bir tomondan, qurilish sanoatida ekologik boshqaruvni tartibga soluvchi milliy standartlarni (ISO 14001 asosida) yangilash, "yashil sertifikat" va "ekologik mahsulot belgisi (eco-label)" tizimlarini joriy etish, yashil texnologiyalarni tatbiq etayotgan korxonalar uchun soliq va bojxona imtiyozlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Ikkinchi tomondan, "Yashil innovatsiyalar fondi"ni tashkil etish, eko-kredit liniyalarini yo'lga qo'yish, shuningdek, xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, UNDP, EBRD) bilan hamkorlikda grant va investitsiya dasturlarini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqarish sohasida energiya auditi va resurs oqimi tahlilini joriy etish, qayta ishlangan chiqindilar ulushini oshirish, sement, g'isht va beton ishlab chiqarishda karbon chiqindilarini kamaytiruvchi ilg'or texnologiyalarni qo'llash esa texnologik modernizatsiya yo'nalishidagi ustuvor vazifalardandir. Shu bilan birga, korxonalarda "yashil menejment" bo'yicha malakali mutaxassislarni tayyorlash, texnik oliy ta'lim muassasalarida "Ekologik menejment" fani bo'yicha amaliy o'quv dasturlarni joriy etish hamda rahbar xodimlar uchun trening va seminarlar tashkil etish zarur. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish sohasida raqamli ekologik monitoring tizimini yaratish, energiya sarfi, chiqindilar hajmi va suv iste'molini onlayn kuzatuv tizimi orqali nazorat qilish, shuningdek "yashil ma'lumotlar bazasi"ni shakllantirib, tarmoq korxonalari o'rtasida ekologik tajriba almashinuvi tizimini yo'lga qo'yish dolzarb hisoblanadi. Umuman olganda, "yashil menejment" tizimini joriy etish O'zbekiston sanoatini ekologik xavfsiz, energiya tejamkor va innovatsion rivojlanish yo'nalishiga burishning eng muhim strategik omillaridan biridir. Ushbu tizimni izchil joriy etish orqali mamlakatda barqaror sanoat rivoji, ekologik tozalik va iqtisodiy samaradorlik o'rtasida muvozanatga erishish mumkin. Shu bois, davlat idoralari, biznes sektori va ilmiy muassasalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni kuchaytirish hamda "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasini barcha darajalarda qo'llab-quvvatlash O'zbekistonning raqobatbardosh va ekologik barqaror kelajagini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida 2019-yil 4-oktabrdagi Qarori.
3. ISO 14001:2015. Environmental Management Systems. International Organization for Standardization.
4. UNEP (United Nations Environment Programme). Green Industry Initiative for Sustainable Development. 2022.
5. European Commission. Circular Economy Action Plan. 2020.
6. OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development). (2021). Green Growth and Sustainable Development Policies. Paris: OECD Publishing. (Yashil o'sish siyosatining xalqaro tamoyillari va sanoatga tatbiq etilishi bo'yicha tahliliy hisobot.)
7. Porter, M. E., & Van der Linde, C. (1995). Toward a New Conception of the Environment–Competitiveness Relationship. *Journal of Economic Perspectives*, 9(4), 97–118. (Atrof-muhitni muhofaza qilish va raqobatbardoshlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qiluvchi klassik ilmiy manba.)
8. Nazarov, B. A. (2023). "Sanoat korxonalarda ekologik menejment tizimini takomillashtirish masalalari." *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali*, №3, 45–52. (O'zbekiston sanoat tarmog'ida ekologik boshqaruv mexanizmlarini tahlil qiluvchi mahalliy tadqiqot.)



9. Jo'rayev, X. (2024). "Ekologik menejment va sanoatda barqaror rivojlanish masalalari." Toshkent iqtisodiyot jurnali.
10. Khamidov, A. R., & Tursunova, M. Sh. (2024). "Qurilish materiallari ishlab chiqarishda energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samarasi." Barqaror rivojlanish strategiyalari ilmiy jurnali, №2, 88–95.
11. UNEP (United Nations Environment Programme). (2022). Green Industry and Circular Economy Practices in Asia. Nairobi: UNEP. (Osiyo mamlakatlarida yashil sanoat va aylanish iqtisodiyoti amaliyotlari haqidagi xalqaro hisobot.)



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
